Ovlayev Suhrob Temur o'g'li, Yo'ichiyev Oybek Ulug'bek o'g'li, Normo'minova Dilorom Umar qizi, Avlayeva Oybarchin Olim qizi	



Artificial intelligence systems for assessing creditworthiness	1382
Mardonova Durdona Yaxshiboy qizi	
B2B bozorini rivojlantirishda raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish	1387
Samadov Askarjon Nishonovich	
Tech-driven growth and the economy of the future: brics-t in the society 5.0 paradigm	1395
Kaldibayev Nurlan Alimjanovich, Sagdullayeva Gulnora Botirovna, Durmanov, Akmal Shaimardanovich	
O'zbekistonda tabiiy resuslardan olinadigan rentaning yaimdagi ulushiga tanlab olingan o'zgaruvchilar ta'siri tahlili	1404
Tursunov Husnidin, Ibragimov Hasan	
O'zbekistonda fond bozorini tartibga solish	1412
Sultonov Sherali Nuraliyevich	
Public perception of the feasibility of introducing islamic banking in Uzbekistan: a consumer perspective	1418
Dr. Shamirova Surayo Kabildjanovna	
Directions for implementing the innovative digital technologies in tourism	1425
Norchaev Asatullo Norbutaevich	
Возможности совершенствования практики финансирования инвестиционных проектов	1430
Шомуродов Равшан Турсункулович, Хакимов Хафизбек Хамза угли	
O'zbekistonda pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatishning transport-logistika jarayonini mintaqaviy darajada rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish	1436
Palvanbayev Umidbek O'ktam o'g'li	
Aksiyalar qiymatini baholashning nazariy asoslari	1440
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning rivojlanayotgan davlatlar amaliyoti tahlili	1444
Raimjanova Madina Asrarovna, Zokirova Feruza Farxod qizi	
Yashil loyihalarni davlat xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish	1449
Zokirova Feruza Farxod qizi	
Факторы и риски, влияющие на оценку стоимости акции	1453
Батирхужа Азиза Фахмуддин кизи	
Финансовые риски в эпоху цифровой экономики: новые вызовы и способы управления	1458
Нуруллина Камила Рустамовна	
Tijorat banklarining yangi bank xizmatlarini iqtisodiy samaradorligi	1463
Rahmatov Temur Sotiboldiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida ekologik innovatsiyalarning roli va amalga oshiruv mexanizmlari	1472
Ulichkina Lyudmila Ivanovna	
Эволюция профессиональных стандартов в республике узбекистан: от формирования к внедрению в сфере туризма	1478
Гольшева Елена Вячеславовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Aligning uzbekistan's education reform with global best practices: the university of missouri as a model for systemic transformation	1485
Azamat Sulaymonov, Laylo Yakhshiboyeva	
O'zbekiston tijorat banklarining investision faolligini ta'minlash masalalari	1489
Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li	
Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi	1493
Q.O.Tursunboyev	
Adoption of green economy mechanisms in the process of diversification of construction enterprises	1500
Yembergenova Aynur Aidosbayevna	
Nomoddiy aktivlar hisobini yuritish va audit jarayonlarini takomillashtirish yo'llari	1506
Rozmatova Umida Yuldashvna	
Raqamli moliya va uni sohaga joriy etish: innovatsion salohiyat	1512
Babadjanov Abdirashid Musayevich	
Влияние корпоративной культуры на инвестиционную стратегию промышленных предприятий	1527
Едгоров Сардорбек Самадович	



Jismoniy shaxslar kreditlarining bank portfeli sifatiga ta'siri: tahliliy yondashuv.....	1533
Sabirova Lobar Baxromovna	
Xo'jaligini soliqaq tortish mexanizmini samaradorligini oshirish istiqbollari.....	1539
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Methods of improving customs management in transforming the customs bodies into a corruption-free field.....	1544
Mirzaxmedova Dilafuz Farxatovna, Tukhtabaev Jamshid Sharafetdinovich	
Особенности цифровизации налоговой системы в узбекистане.....	1548
Юсупов Одил Омонович	
Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda texnologik yangiliklarni joriy etish: muammolar va imkoniyatlar.....	1554
Ismailov Akmal axsudovich, G'ulomov Ilhom Akramovich	
Kichik biznes subyektlarini kreditlashda raqamli bank xizmatlaridan foydalanishning afzalliklari.....	1560
Madjitova Maftuna Kamiljon qizi	
Tadbirkorlikda tavakkalchilikni boshqarishning nazariy asoslari.....	1564
Ziyatova Sitora Baxtiyorovna	
Importance of media activity in negotiations.....	1569
Fariza Xoldarova	
Kredit portfeli risklarini diversifikatsiya qilish strategiyalari.....	1575
Hamroyev Sherzod Axtamovich	
Marketing strategiyasi tushunchasi va uning turizm sohasidagi ahamiyati.....	1580
Komilov Dostonbek Ro'zimboy o'g'li	
Banklarining faoliyatini tartibga solish yo'llari.....	1586
Umirzoqova Aziza Olim qizi	
Yashil iqtisodiyot sari: Kanada tajribasi asosida o'zbekiston uchun istiqbollar.....	1590
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Norboyev Odil Abrayevich	
Aholi hayotiylik sifatining statistik tahlili.....	1595
Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	
Davlat moliyasini isloh qilish sharoitida budjet jarayonini takomillashtirish.....	1602
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li, Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi	
Recent trends in the global stock market: a macro-level analysis with emphasis on asia and central asia (2023–2025).....	1612
Mamataliev Bobur Saidnazar ugli	
Barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot"ning o'rni.....	1617
Murodov Sardor Nurali o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li	
Aholi daromadlari va ta'lim darajalarini turmush darajasiga ta'sirini baholash.....	1623
Xusinov I.I.	
Soliqlarni yig'iluvchanligini oshirish istiqbollari.....	1630
To'xsanov Qudratillo Nozimovich	
Qoraqalpog'iston respublikasida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish muammolari.....	1635
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Tleymuratov Bahadir Genjemuratovich	
Forecasting and mitigating risks in international projects based on financial management principles.....	1641
Oripova Saodat Mirfotikh kizi	
Uglerod chiqindilarini buhgaletariya hisobiga integratsiya qilish: o'zbekiston iqtisodiyotida barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....	1646
Halilov Sherzod Akhmatovich	
Contribution margin, dol, and break-even analysis: a financial performance comparison of amazon and walmart (2020–2024).....	1657
Kodir Gulomov	
Yashil iqtisodiyot: mohiyati, tushunchasi va rivojlanish tamoyillari.....	1664
Ataniyazova Maksuda Baltabayevna	
Beqarorlik sharoitida korxonalar ishlab chiqarish potensialidan foydalanishning optimallashtirish.....	1669
Jalilov Bahrom Sotiboldievich	
Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish orqali xizmat sektorining raqobatbardoshligini hamda ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish.....	1674
Musinov Dilshod Sultanovich	



Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar – moddiy zaxiralar harakatini hujjatlashtirish.....	1680
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	
Bank likvidligini boshqarishda valyuta kursi barqarorligini ta’minlash mexanizmlari.....	1686
Sattorova Nasiba G’anijon qizi	
Davlat xizmatlarining raqamlashuvi va tadbirkorlikka ta’siri.....	1690
Sattarov Xayrulla Fayzullayevich	
Iqtisodiy tizimda risk va uning xususiyatlari.....	1694
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Sanoat korxonasi faoliyatida ishlab chiqarish salohiyatining o’rni va roli.....	1701
Xudoyorova Mehrangiz Murodovna	
Xorijiy kapital va uning milliy iqtisodiyotdagi o’rni: nazariy-metodologik asoslar.....	1705
Abdullayev Zoxid Xolxo’jayevich	
Mahallalarda tadbirkorlikni va hunarmadchilikni rivojlantirishni boshqarishning ilmiy-nazariy jihatlar.....	1710
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
Valyuta-moliya munosabatlari va globallashtirish jarayonlarining iqtisodiy mohiyati	1714
Gulmurodova Marjona Olimjon qizi, Jo’rabekova Xumora Muzaffar qizi, Yuldasheva Umida	
Tijorat banklarida aholi omonatlarini jalb qilish va ularning jozibadorligini oshirish strategiyalari: iqtisodiy va raqamli yondashuvlar	1719
Xakimov Zoxid Norbo’tayevich	



TIJORAT BANKLARIDA AHOLI OMONATLARINI JALB QILISH VA ULARNING JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI: IQTISODIY VA RAQAMLI YONDASHUVLAR

Xakimov Zoxid Norbo'tayevich

Mustaqil tadqiqotchi

ORCID: 0009-0008-2899-9473

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarida aholi omonatlarini jalb qilish va ularning jozibadorligini oshirish bo'yicha strategik yondashuvlar iqtisodiy, huquqiy va texnologik jihatdan tahlil qilinadi. So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimida olib borilayotgan islohotlar, xususan Prezidentning raqamli iqtisodiyotga oid farmonlari asosida omonatlar bazasini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotda omonat turlarining solishtirma jozibadorligi, foiz stavkalari, raqamli texnologiyalarning ahamiyati, aholi ishonchi va iqtisodiy barqarorlik bilan bog'liq omillar ko'rib chiqiladi. Natijalar regressiya modellari, korrelyatsiya tahlillari va statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinib, tijorat banklari uchun depozit siyosatini takomillashtirishga oid ilmiy asoslangan yo'nalishlar belgilanadi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, aholi omonatlari, foiz stavkasi, moliyaviy savodxonlik, omonat turlari, muddatli omonat, talab omonati, jamg'arma omonat, depozit siyosati, raqamli bank xizmatlari, mobil ilova, omonat kafolati, inflyatsiya, iqtisodiy barqarorlik, regressiya modeli, moliyaviy texnologiyalar, prezident farmoni, bank ishonchiligi.

Abstract: This article analyzes strategic approaches to attracting public deposits in commercial banks and enhancing their appeal from economic, legal, and technological perspectives. In recent years, reforms have been implemented in Uzbekistan's banking system, particularly under presidential decrees on the digital economy, with a special focus on expanding the deposit base. The study explores the comparative attractiveness of deposit types, interest rates, the importance of digital technologies, public trust, and economic stability. The results are analyzed using regression models, correlation analysis, and statistical data to identify scientifically grounded directions for improving deposit policy in commercial banks.

Key words: commercial banks, public deposits, interest rate, financial literacy, deposit types, term deposit, demand deposit, savings deposit, deposit policy, digital banking services, mobile application, deposit guarantee, inflation, economic stability, regression model, financial technologies, presidential decree, bank reliability.

Аннотация: В статье анализируются стратегические подходы к привлечению вкладов населения в коммерческие банки и повышению их привлекательности с экономической, правовой и технологической точек зрения. В последние годы в банковской системе Узбекистана проводятся реформы, особенно в рамках указов Президента, касающихся цифровой экономики, с особым вниманием к расширению депозитной базы. В исследовании рассматриваются сравнительная привлекательность типов вкладов, процентные ставки, значение цифровых технологий, доверие населения и экономическая стабильность. Результаты анализируются на основе регрессионных моделей, корреляционного анализа и статистических данных с целью определения научно обоснованных направлений по совершенствованию депозитной политики коммерческих банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, вклады населения, процентная ставка, финансовая грамотность, типы вкладов, срочный вклад, вклад до востребования, сберегательный вклад, депозитная политика, цифровые банковские услуги, мобильное приложение, гарантия по вкладам, инфляция, экономическая стабильность, регрессионная модель, финансовые технологии, указ Президента, надежность банка.

KIRISH

Jahon bank tizimida aholi omonatlari iqtisodiy barqarorlikning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, moliyaviy institutlarning uzluksiz faoliyat yuritishi, kreditlash salohiyatini oshirish va resurs bazasini mustahkamlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xalqaro amaliyotda ham, O'zbekistonda ham tijorat banklari tomonidan aholi mablag'larini omonat shaklida jalb qilish moliyaviy tizimning tayanch funksiyasidir. Aholi omonatlari ko'p jihatdan



fuqarolarning iqtisodiy ishonchi, moliyaviy savodxonligi, bank xizmatlari sifati va foiz siyosatiga bog'liq bo'lib, ularning jozibadorligi bevosita makroiqtisodiy holat, inflatsiya darajasi, mehnatga haq to'lash miqdori, raqamli texnologiyalarni joriy etish kabi omillar bilan uzviy bog'liqdir.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan bank tizimini tubdan isloh qilish va raqamli iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan moliyaviy infratuzilmani yaratish bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli Prezident farmonida belgilanganidek, "2020–2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi" asosida bank xizmatlari ommabopligini oshirish, xususan aholi omonatlari salmog'ini ko'paytirish bo'yicha tizimli ishlar belgilab berilgan. Mazkur farmonda quyidagicha ta'kidlangan:

"...bank tizimining asosiy vazifasi sifatida jismoniy shaxslarning omonatlarini kafolatlash, omonat turlarining jozibadorligini oshirish, raqobatbardosh foiz siyosatini yuritish va xizmat ko'rsatish sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish nazarda tutiladi."

Shu bilan birga, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmonda raqamli moliya xizmatlarini ommalashtirish, bank xizmatlarining qulaylik darajasini oshirish va masofaviy omonat xizmatlarini joriy etish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu hujjat asosida tijorat banklarining omonat operatsiyalarini to'liq raqamlashtirish, mijozlar uchun mobil va internet-banking orqali xizmat ko'rsatishni kengaytirish bo'yicha real natijalarga erishilmoqda.

Respublikamizda 2002-yil 5-apreldagi 360-II-sonli "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi Qonun hamda unga muvofiq tashkil etilgan Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi orqali aholi omonatlarining xavfsizligi bo'yicha muhim huquqiy asos yaratildi. Ushbu qonun qabul qilingach, aholining banklarga bo'lgan ishonchi sezilarli darajada ortdi, omonatlar hajmi yil sayin barqaror o'sib bormoqda.

O'zbekiston tijorat banklarida aholi omonatlari hajmining oshib borayotganligi iqtisodiy islohotlarning samaradorligidan dalolat bermoqda. Masalan, 2022–2024 yillar davomida aholi omonatlari hajmi qariyb 2,3 barobarga oshib, 2024-yil boshiga kelib 86,3 trln so'mni tashkil etdi. Bunda davlat ulushi mavjud banklar, ayniqsa, O'zmilliybank, Agrobank va O'zsanoatqurilishbank yetakchilik qilgan bo'lsa-da, xususiylar banklar, xususan Kapitalbank, Hamkorbank va Anorbank ham aholi omonatlarini jalb qilishda sezilarli o'sishga erishdi.

Shuningdek, so'nggi yillarda raqamli bank xizmatlarining kengayishi, moliyaviy texnologiyalarning rivojlanishi va aholi tomonidan mobil ilovalardan foydalanish ko'lamining ortib borishi omonatlarning jozibadorligini oshirishda muhim omil bo'lmoqda. Bu esa tijorat banklariga yangi mijozlar qatlamini jalb qilish imkonini bermoqda. Biroq hali ham yechimini kutayotgan masalalar mavjud: jumladan, foiz stavkalari siyosatining barqaror emasligi, aholi moliyaviy savodxonligining pastligi, omonat turlarining cheklanganligi, shuningdek, banklararo raqobat muhitining to'liq shakllanmagani.

Shunday sharoitda aholining tijorat banklariga bo'lgan ishonchini oshirish, depozit turlarining diversifikatsiyasini kengaytirish, shaxsiylashtirilgan omonat mahsulotlarini joriy etish, moliyaviy savodxonlik dasturlarini keng miqyosda yo'lga qo'yish zaruriyati kun tartibiga chiqmoqda. Mazkur tadqiqot ayni shu muammolarning ilmiy tahliliga, aholi omonatlari jozibadorligini oshirish bo'yicha strategik yondashuvlar ishlab chiqishga qaratilgan.

Maqolaning asosiy maqsadi – tijorat banklarining aholi omonatlarini jalb etish bo'yicha mavjud holatini kompleks baholash, zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilish hamda ularning jozibadorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklarida aholi omonatlari jozibadorligini oshirish masalasi O'zbekiston iqtisodiy fanlarida doimo dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. So'nggi yillarda bu boradagi ilmiy izlanishlar miqdori va sifati ortib borayotganini kuzatish mumkin. O'zbekiston olimlari bank tizimi, omonat siyosati va aholi ishonchini shakllantirishning turli aspektlarini tahlil qilib, muhim ilmiy xulosalar berganlar. Masalan, ba'zi tadqiqotchilar tijorat banklarida omonatlarni jalb qilishda bank ishonchiligi va xizmat sifati hal qiluvchi omillar ekanini ta'kidlaydi. Ularning fikriga ko'ra, bank mijozining ishonchini qo'lga kiritish uchun nafaqat foiz stavkalari, balki xizmat ko'rsatish madaniyati, tezkorlik va shaffoflik muhimdir [1]. Boshqa mualliflar esa omonatlarning valyutasi va muddatiga ko'ra jozibadorlik darajasini solishtirib, milliy valyutadagi uzoq muddatli omonatlarning real ijobiy foiz stavkalari shartida aholining xatti-harakatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlagan [2]. Yana bir guruh olimlar aholi omonatlarini rag'batlantirishda fiskal vositalar – soliq imtiyozlari va davlat kafolatlarining ahamiyatini alohida ta'kidlab, ular omonatchilar sonini sezilarli oshirishini ilmiy asoslagan [3]. Ayrim tadqiqotchilar O'zbekistondagi omonat turlarining cheklanganligini muammo sifatida ko'rsatadi va innovatsion omonat mahsulotlarini joriy etish zarurligini ilgari suradi [4]. Shuningdek, aholi omonatlarining hududiy taqsimotini o'rganib, viloyatlar kesimida moliyaviy xizmatlardan foydalanishda tengsizlik mavjudligini aniqlagan. Ular raqamli moliyaviy texnologiyalar bu



tengsizlikni kamaytirishga xizmat qilishi mumkinligini taklif qiladi [5]. Banklar marketing siyosatining omonatchilar soniga ta'sirini chuqur tahlil qilgan tadqiqotlar ham mavjud. Unga ko'ra, reklama faolligi yuqori bo'lgan banklar omonat jalb qilishda nisbatan samarali bo'lmoqda [6]. Bank xizmatlarining diversifikatsiyasi va shaxsiylashtirish darajasini oshirish zarurligini ko'rsatgan tadqiqotlar ham mavjud bo'lib, shaxsiy bankir xizmatining joriy qilinishi jiddiy omonat hajmi ortishiga olib kelishini isbotlagan [7]. Boshqa bir izlanishda inflyatsiya va foiz stavkalarining omonatlar hajmiga dinamik ta'siri ekonometrik modellar orqali baholangan [8]. Tadqiqotlarda omonatlarni himoyalash mexanizmlarining takomillashuvi bo'yicha ilgari surilgan takliflar orqali davlat kafolat fondlarining moliyaviy barqarorlikdagi roli chuqur asoslangan [9]. Banklararo raqobat muhitining omonat stavkalariga ta'sirini tahlil qilib, sohani liberallashtirish zarurligi e'tirof etilgan [10]. Mijozlarning moliyaviy savodxonligini oshirish orqali omonat miqdorini sezilarli oshirish mumkinligi statistik ma'lumotlar bilan asoslangan [11]. Shuningdek, gender nuqtai nazaridan omonatchilar xatti-harakatlarini tahlil qilib, ayollar omonatlarining qisqa muddatli va xavfsizlikka yuqori e'tibor qarashini aniqlagan izlanishlar ham mavjud [12]. Yuqoridagi adabiy manbalar asosida quyidagi xulosani chiqarish mumkin: O'zbekiston olimlari tomonidan bank omonatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ko'plab muammolarni yoritgan va ularning yechimlari bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, banklarning marketing, texnologik va institutsional jihatlarini uyg'unlashtirgan kompleks yondashuvlar hozircha yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur maqola shu bo'shliqni to'ldirishga intiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekistonda tijorat banklarida aholi omonatlari jozibadorligini oshirish masalasiga ilmiy yondashuvni ta'minlash uchun mazkur tadqiqotda kompleks metodologik baza shakllantirildi. Tadqiqot bir nechta analitik bosqichlardan iborat bo'lib, ularning har biri turli ilmiy metodlardan foydalanish asosida olib borildi: normativ-huquqiy tahlil, statistik ko'rsatkichlar tahlili, ekonometrik modellashtirish, korrelyatsion bog'liqlikni aniqlash va amaliyotga asoslangan takliflar ishlab chiqish. Tadqiqotning obyektini O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari tashkil etadi. Predmet sifatida esa ushbu banklarda aholi omonatlari jozibadorligini oshirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar, moliyaviy indikatorlar, bank mahsulotlari tuzilishi, raqamli xizmatlarning ommalashuvi va mijozlarning ishonchi tanlab olingan. Banklar faoliyatining zamonaviy iqtisodiy muhitda transformatsiyalanishi, global moliyaviy tendensiyalar va mahalliy strategiyalarni uyg'unlashtirish zaruriyati mazkur mavzuni dolzarb qilmoqda.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi: ilmiy abstraksiyalash – nazariy yondashuvlarni umumlashtirish va modellashtirish; mantiqiy tahlil – omillar orasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash; statistik tahlil – rasmiy bank ko'rsatkichlari asosida aholi omonatlari dinamikasini o'rganish; ekonometrik modellashtirish – ko'p o'zgaruvchili regression model orqali omonatlar hajmiga ta'sir etuvchi omillarni baholash; korrelyatsion tahlil – o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik kuchini aniqlash; komparativ tahlil – yillik o'zgarishlarni va banklararo farqlarni solishtirish; ARIMA modeli – vaqtli qatorlar prognozi uchun dinamik prognozlashtirish. Tahlil uchun foydalanilgan ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, Davlat Statistika Agentligi, Turonbank ATB va boshqa tijorat banklarining ochiq hisobotlari asosida shakllantirildi. Tahlil davri sifatida 2016-yildan 2023-yilgacha bo'lgan oylik ma'lumotlar tanlandi. Jami kuzatuvlar soni – 74 ta oy, har bir omil bo'yicha to'liq statistik qatorlar mavjud. Ma'lumotlar Microsoft Excel dasturida tozalandi, transformatsiyalandi va Stata dasturida ekonometrik tahlil uchun tayyorlandi.

Tijorat banklarida aholi omonatlari hajmini aniqlovchi asosiy omillar sifatida quyidagi ko'rsatkichlar tanlandi: $\log_{vol_deposit}$ – aholi omonatlari hajmi (bog'liq o'zgaruvchi), \log_{infl_rate} – inflyatsiya darajasi, \log_{min_wage} – eng kam ish haqi, \log_{remote_serv} – masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar soni, \log_{depos_rate} – o'rtacha foiz stavkasi, $\log_{GDP_per_cap}$ – aholi jon boshiga YAIM. Modelga quyidagi ko'rinishda chiziqli ko'p omilli regressiya tahlili qo'llandi: $\log_{vol_deposit} = \beta_0 + \beta_1 \log_{infl_rate} + \beta_2 \log_{min_wage} + \beta_3 \log_{remote_serv} + \beta_4 \log_{depos_rate} + \beta_5 \log_{GDP_per_cap} + \epsilon$. Modelning qabul qilinish mezonlari: Durbin-Watson testi: avtoregressiyani tekshirish uchun; Breusch-Pagan testi: dispersiyaning bir xil emasligi (heteroskedastiklik) mavjudligini baholash uchun; Shapiro-Wilk testi: qoldiq normal taqsimotda ekanligini aniqlash uchun.

Ushbu model orqali quyidagi gipotezalar sinovdan o'tkazildi: H1: Inflyatsiyaning oshishi omonatlar hajmini kamaytiradi; H2: Ish haqi oshishi jamg'arma hajmini oshiradi; H3: Masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar sonining ortishi omonat hajmini oshiradi; H4: Foiz stavkalari yuqoriligi aholi omonatlari hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; H5: Jon boshiga YAIM ortishi – ortiqcha daromadni tejashga undaydi. Modelda R-kvadrat ko'rsatkichi 0.88 darajasida chiqqan bo'lib, bu modelning izohlay oladigan quvvatining yuqoriligini ko'rsatadi. Har bir omil uchun p-qiyamatlar < 0.05 chiqqani ularning statistik ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Afzalliklari: model amaliy ma'lumotlar asosida qurilgan; har bir omilga nisbatan alohida ta'sir ko'rsatkichlari aniqlangan; davlat statistikasi va bank hisobotlariga tayanilganligi metodologik asosning ishonchligini oshiradi. Cheklolar: norasmiy sektor omillari modelda hisobga olinmagan; xususiy banklar orasida mahsulotlar xilma-xilligi yuqori bo'lgani uchun ayrim tafovutlar soddalashtirilgan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan aholi omonatlarini jalb qilish sohasida barqaror ijobiy dinamika mavjud. 2022–2024 yillar davomida tijorat banklarining umumiy omonat portfeli hajmi 36,9 trillion so'mdan 86,3 trillion so'mga oshgan bo'lib, bu 2,3 barobar o'sishni anglatadi. Ayniqsa, Kapitalbank, O'zmilliybank va Agrobank omonat jalb qilish bo'yicha yetakchi banklar qatoridan joy oldi. Bu o'zgarishlar, bir tomondan, banklarning jozibador omonat mahsulotlari va raqamli xizmatlar orqali yangi mijozlarni jalb etishi, ikkinchi tomondan esa aholi daromadlarining o'sishi bilan bog'liqdir.

Foiz stavkalarining yilma-yil oshib borayotgani ham omonatlarni rag'batlantiruvchi asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. 2019 yildan 2024 yilgacha bo'lgan davrda foiz stavkalarining o'rtacha darajasi 16.8 foizdan 19.5 foizgacha ko'tarilgan. Milliy valyutadagi omonatlarga nisbatan foizlar xorijiy valyutadagilardan ancha yuqori bo'lib, bu holat milliy valyutani mustahkamlashda muhim instrument sifatida ishlatilmoqda. Aholining inflatsion kutilmalari fonida real foiz stavkalarining musbat saqlanishi, ularning omonatga bo'lgan qiziqishini oshirgan. Shuningdek, uzoq muddatli omonatlar uchun taklif etilayotgan imtiyozli shartlar ham omonat bazasining barqarorligini ta'minlamoqda.

Ekonometrik model orqali olib borilgan tahlillarda inflyatsiya darajasi, eng kam ish haqi, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni, foiz stavkalari va jon boshiga YAIM ko'rsatkichlarining aholi omonatlari hajmiga ta'siri baholandi. Model natijalariga ko'ra, inflyatsiya darajasining ortishi aholi omonatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi (koeffitsiyent: -1.068). Aksincha, masofaviy xizmatlar (0.596), foiz stavkalari (0.819) va jon boshiga YAIM (0.796) kabi omillar omonatlar hajmini oshiruvchi kuchli faktorlar sifatida namoyon bo'lgan.

Tahlillarda yana bir muhim jihat shundaki, masofaviy bank xizmatlari – ya'ni mobil ilovalar, internet-banking va elektron to'lov tizimlaridan foydalanuvchilarning soni ortgani sari omonatlar hajmi ham sezilarli darajada oshgan. Bu esa bank sektorida raqamli transformatsiyaning ijobiy samara berayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, hududiy farqlarni kamaytirish va moliyaviy inklyuziyani ta'minlashda masofaviy xizmatlar muhim vosita bo'lib chiqmoqda.

Barcha model parametrlari statistik jihatdan ishonchli ($p < 0.05$) deb topilgan. Model R-kvadrati 0.88 bo'lib, bu omillar omonatlar hajmining 88 foizini izohlab bera olishini bildiradi. Durbin-Watson testiga ko'ra, modelda avtoregressiv xatolik mavjud emas, bu esa prognozlarning ishonchligini yanada oshiradi. O'zbekistonda tijorat banklarining aholi omonatlarini jalb qilish faoliyati yuqori natijalar bermoqda. Bunda davlat tomonidan yaratilgan barqaror makroiqtisodiy muhit, raqamli bank xizmatlarining kengaytirilishi, foiz stavkalarining nisbatan maqbulligi va aholi ishonchining oshishi hal qiluvchi rol o'ynagan. Mazkur tahlillar asosida tijorat banklari uchun omonatlarni jalb etish strategiyasida foydali yo'nalishlar aniqlangan bo'lib, ularni amaliyotga tadbiiq etish orqali moliyaviy resurs bazasini yanada kengaytirish mumkin.


1-jadval. Aholi omonatlariga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha ekonometrik model natijalari

O'zgaruvchi	Koeffitsiyent	t-stat	p-qiyamati	Pastki ishonch oraliq	Yuqori ishonch oraliq	Statistik ahamiyat
Inflyatsiya (loginfl_rate)	-1.068	-6.20	0.000	-1.412	-0.724	***
Eng kam ish haqi (logmin_wage)	$+0.327$	$+2.32$	0.023	$+0.045$	$+0.608$	**
Masofaviy xizmatlar (logremote_serv)	$+0.596$	$+2.06$	0.043	$+0.018$	$+1.175$	**
Foiz stavkasi (logdepos_rate)	$+0.819$	$+2.35$	0.022	$+0.125$	$+1.514$	**
YAIM per capita (logGDP_per_capita)	$+0.796$	$+3.74$	0.000	$+0.371$	$+1.220$	

1-jadvaldagi ekonometrik tahlil natijalariga ko'ra, aholi omonatlari hajmiga eng kuchli salbiy ta'sir qiluvchi omil inflyatsiya bo'lib, uning koeffitsiyenti -1.068 ni tashkil etadi. Bu inflyatsiya oshgan sayin odamlar omonat saqlashdan tiyilishiga sabab bo'ladi. Eng kuchli ijobiy ta'sir esa foiz stavkasiga tegishli bo'lib, $+0.819$ koeffitsiyent bilan omonatlarning jozibadorligini oshiradi.

Masofaviy bank xizmatlari ($+0.596$) va jon boshiga YAIM ($+0.796$) omonatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa aholi moliyaviy imkoniyatlari va raqamli qulayliklar ortgani sari bank tizimiga ishonch mustahkamlanishini anglatadi. Eng kam ish haqi ($+0.327$) ham omonatlarga musbat ta'sir etadi, ya'ni real daromad oshgan sari tejjash tendensiyasi kuchayadi.


Barcha omillar statistik jihatdan ishonchli bo'lib ($p < 0.05$), ularning omonatlar hajmiga bevosita va sezilarli ta'sir ko'rsatishi model orqali ilmiy asoslangan. Shu bois, banklar inflyatsiyani nazorat qilish, raqamli xizmatlarni rivojlantirish va foiz siyosatini optimallashtirish orqali omonatchilarni faolroq jalb eta oladi.



1-rasm. Tijorat banklarida aholi omonatlari bo'yicha o'rtacha foiz stavkalarining yillik o'sish dinamikasi (2019–2024)

Mazkur 1-rasmda 2019–2024 yillar oralig'ida O'zbekistondagi tijorat banklari tomonidan taklif etilgan aholi omonatlariga nisbatan o'rtacha foiz stavkalarining barqaror o'sishini aks ettiradi. 2019 yilda foiz stavkalari 16.8 foiz atrofida bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024 yilga kelib 19.5 foizgacha yetgan. Bu 2.7 foizlik o'sish jarayoni aholining bank omonatlariga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirgan muhim omillardan biridir.

Tahlildan ko'rinib turibdiki, stavkalarining har yili muntazam o'sib borayotgani, banklararo raqobatning kuchayishi va inflyatsion xavflarga qarshi aholini real daromad bilan himoya qilish zaruratidan kelib chiqqan. Ayniqsa, 2022–2024 yillar oralig'ida stavkalardagi keskin o'sish omonat bazasining jiddiy kengayishiga olib kelgan. Shu tariqa, foiz stavkalari banklar tomonidan omonat siyosatini faol boshqarish vositasi sifatida ishlatilgani, aholi esa o'z jamg'armalarini daromadli saqlash imkoniyatiga ega bo'lganini ko'rsatadi.



2-rasm. Tijorat banklarida aholi omonatlari hajmining yillik o'sish dinamikasi (2019–2024)

2-rasmda 2019–2024 yillar oralig'ida tijorat banklarida aholi tomonidan joylashtirilgan omonatlarning umumiy hajmi 18,5 trln so'mdan 86,3 trln so'mgacha yetgan. Ushbu barqaror o'sish aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchi ortgani, foiz siyosatining rag'batlantiruvchi bo'lgani va moliyaviy savodxonlik darajasining oshganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2022-yildan keyingi davrda o'sish keskinlashgani iqtisodiy faollikning tiklanishi va raqamli bank xizmatlarining kengaygani bilan bog'liq.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda tijorat banklarining aholi omonatlarini jalb qilishdagi faoliyati so'nggi yillarda yangi bosqichga o'tmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, omonatlar hajmining sezilarli o'sishi — davlat tomonidan yaratilgan makroiqtisodiy barqarorlik, moliyaviy islohotlar, raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi va foiz siyosatining rag'batlantiruvchi yo'nalishga o'tganligi bilan bevosita bog'liq. 2019–2024 yillar davomida aholi omonatlari hajmi qariyb 4,6 barobarga ortib, 86,3 trillion so'mga yetdi. Shu bilan birga, foiz stavkalari 16.8 foizdan 19.5 foizgacha o'sdi, bu esa aholining omonatlarga bo'lgan qiziqishini saqlab turishga xizmat qildi. Tadqiqotda tuzilgan ekonometrik model esa inflyatsiya, foiz stavkasi, masofaviy xizmatlar, jon boshiga YAIM va eng kam ish haqining aholi omonatlariga ta'sirini chuqur tahlil qilishga imkon berdi. Barcha omillar statistik jihatdan ahamiyatli chiqdi va ular asosida strategik takliflar ishlab chiqildi.

Xususan, inflyatsiya darajasi eng salbiy ta'sir ko'rsatadigan omil sifatida ajralib chiqdi. Bu esa omonatchilar uchun asosiy xavf bo'lib qolmoqda. Aholining real daromadi inflyatsiya bosimi ostida qadrsizlangan hollarda omonat saqlash motivatsiyasi kamayadi. Shu sababli, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash, narxlar barqarorligini ta'minlash va aholining inflyatsiyaviy kutishlarini ijobiy tomonga o'zgartirish muhim strategik ustuvorliklardan biri bo'lishi kerak. Foiz stavkalarining esa kuchli ijobiy ta'siri mavjud bo'lib, ular to'g'ri boshqarilgan taqdirda aholi mablag'larini tijorat banklariga yo'naltirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunda banklar raqobatbardosh foiz siyosatini yuritish bilan birga, inflyatsiya darajasidan yuqori real foizlarni taklif qilishga harakat qilishlari lozim.

Tadqiqot shuningdek, raqamli texnologiyalarning bank xizmatlarida keng qo'llanilishi omonat hajmiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Xususan, internet-banking, mobil ilovalar, QR orqali to'lovlar va avtomatlashtirilgan depozit tizimlari mijozlar uchun qulayliklar yaratibgina qolmay, banklarga yangi omonatchilar qatlamini jalb etishga imkon bermoqda. Ayniqsa, hududiy moliyaviy xizmatlardan cheklangan foydalanishga ega bo'lgan viloyatlarda masofaviy xizmatlarning rivojlanishi bank xizmatlarining inklyuzivligini oshirish vositasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash – inflyatsiyani maqsadli darajada ushlab turish va pul-kredit siyosatini ehtiyotkorlik bilan yuritish orqali omonatlar muhitini barqarorlashtirish zarur.

Foiz siyosatini diversifikatsiyalash – qisqa, o'rta va uzoq muddatli omonatlar bo'yicha foiz stavkalarini differensiallashtirish va yuqori foizli mahsulotlarni taklif qilish orqali jamg'armalarni uzoq muddatga jalb qilish mexanizmlarini kuchaytirish lozim.

Raqamli moliyaviy texnologiyalarni kengaytirish – bank mobil ilovalari, onlayn platformalar va fintech bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali mijozlarga qulay va ishonchli omonat xizmatlarini taklif etish.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish – aholining bank tizimiga nisbatan xabardorlik darajasini ko'tarish uchun doimiy axborot-ta'lim kampaniyalarini yo'lga qo'yish va ommaviy axborot vositalari orqali moliyaviy madaniyatni targ'ib qilish.

Omonatlarni kafolatlash tizimini mustahkamlash – omonatchilar ishonchini oshirish uchun depozitlar bo'yicha davlat kafolatlarini kuchaytirish, shuningdek, banklararo sug'urta fondlari faoliyatini kengaytirish.

Hududlararo tenglikni ta'minlash – chekka va qishloq hududlarida moliyaviy xizmatlar infratuzilmasini kengaytirish orqali butun respublika bo'yicha aholi omonat salohiyatini to'liq safarbar qilish.

Innovatsion omonat mahsulotlarini joriy etish – indeksatsiyalangan, valyuta bog'langan yoki bonusli omonat mahsulotlarini yaratish orqali turli segmentdagi mijozlarga mos echimlar taklif qilish.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston bank tizimida omonatlarni jalb qilish strategiyasi ko'p omilli va kompleks yondashuvni talab etadi. Yuqorida keltirilgan omillarni tizimli ravishda boshqarish orqali tijorat banklari o'z moliyaviy barqarorligini mustahkamlashlari, aholi esa o'z mablag'larini ishonchli va daromadli manbaga aylantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu tariqa, bank tizimi va real iqtisodiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlik yanada mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayeva Sh. (2019). Tijorat banklarida xizmat sifati va mijoz ishonchi. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. Omonov A. (2021). Omonatlarning foiz stavkalari va mijoz xatti-harakati. – Samarqand moliya instituti jurnali.
3. Mamadiyarov Z. (2020). Fiskal omillar va omonatlarning jozibadorligi. – O'zbekiston bank tizimi sharhlari.
4. Azlarova A. (2018). Innovatsion omonat mahsulotlari. – Moliyaviy bozorlar ilmiy to'plami.
5. Mo'minova M. (2021). Hududiy moliyaviy tengsizliklar tahlili. – "Ilm-fan va amaliyot" jurnali.
6. Mamatov A. (2019). Bank marketing strategiyalarining samaradorligi. – "Yosh iqtisodchilar" to'plami.
7. Melikov O. (2020). Shaxsiylashtirilgan bank xizmatlari. – "Bank va Moliya" ilmiy jurnali.
8. Rahimov S. (2022). Ekonometrik tahlil usullari orqali bank omonatlari tahlili. – "Statistika va iqtisodiyot" jurnali.
9. Tursunov D. (2021). Omonatlarni himoya qilish tizimi. – "Huquq va moliya".
10. Bozorov X. (2017). Banklararo raqobat muhiti. – Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti axborotnomasi.
11. Abdukarimov B. (2020). Moliyaviy savodxonlik va omonatlar hajmi. – "Iqtisodiy innovatsiyalar".
12. Nishonova I. (2023). Gender va bank omonatlari: Empirik tahlil. – "Ayollar va Iqtisodiyot" jurnali.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
